

## JANUBIY OQCHADARYO VA QUYI ZARAFSHON VODIYSI, GEOGRAFIK HOLATI, O‘ZLASHTIRILISH BOSQICHLARI

*Usmanova Inobat Ibragimovna, Urganch pedagogika instituti  
tayanch doktoranti, “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasida stajor  
o‘qituvchisi*

## VALLEYS OF SOUTHERN AKCHADARYA AND LOWER ZERAVSHAN, GEOGRAPHICAL LOCATION, STAGES OF DEVELOPMENT

*Usmanova Inobat Ibragimovna, Doctoral student of the Urganch  
Pedagogical Institute, teacher-intern of the “National Idea and  
Philosophy” department*



<https://orcid.org/0000-0003-4013-3556>

*e-mail:*  
*inobatusmanova540@gmail.com*

## ДОЛИНЫ ЮЖНОЙ АКЧАДАРЫ И НИЖНЕГО ЗАРАФШАНА, ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ, ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ

*Усманова Инобат Ибрагимовна, базовый докторант  
Ургенчского педагогического института, преподаватель-  
стажер кафедры “Национальная идея и философия”*

**Annotatsiya:** Maqolada Janubiy Oqchadaryo va Quyi Zarafshon vodiysining paleogeografik holati, o‘zlashtirilish bosqichlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Baratov P., Mamatqulov M., Rafiqov A., Tolstov S.P., Vinogradov A.V., G‘ulomov Ya.G‘., Islamov U.I., Asqarov A., Xolmatov N., Oqchadaryo, Quyi Zarafshon, Jonbos 4,5, Tolstov, Kunyak, Uch-tagan, Darbazaqir 1,2, Xo‘ja Bustan, Qushbulaq, Sultan Sanjar.

**Abstract:** The article analyzes the stages of development and paleogeographical conditions of the Southern Akcha Darya and Lower Zarafshan valleys.

**Key words:** Baratov P., Mamatkulov M., Rafikov A., Tolstov S.P., Vinogradov A.V., Gulyamov Ya.G., Islamov U.I., Askarov A., Kholmatov N., Akchadarye, Lower Zarafshan, Zhanbos 4.5, Tolstov, Kunyak, Uch -Tagan, Zarafshan, Zhanbos 4.5, Tolstov, Kunyak, Uch -Tagan.

**Аннотация:** В статье анализированы этапы освоения и палеогеографические условия Южной Акчадарьи и Низовья Зарафшанских долин.

**Ключевые слова:** Баратов П., Маматкулов М., Рафиков А., Толстов С.П., Виноградов А.В., Гулямов Я.Г., Исламов У.И., Аскарлов А., Холматов Н., Акчадарья, Низовья Зарафшан, Жанбос 4,5, Толстов, Куньяк, Уч-Таган, Дарбазакыр 1,2, Хужа Бустан, Кушбулак, Султан Санжар.

**KIRISH.** O‘zbekistonning hudud tuzilishi tog‘lik va tekislik bo‘lishining tarixan tarkib topishi yer osti tebranishlari natijasidir. Geografik adabiyotlarda qayd qilinishicha, mil.avv. 25-10 million yillar ilgari Janubiy Oqchadaryo va Zarafshon daryosi quyi havzasi tekislik bo‘lgan [1].

Ikki hududning yuzasi manzarasini Qizilqum sochma to‘lqinsimon qum uyumlari, barxanlari va botiqlari tasvir qiladi. Shuningdek, ikki hududning geografik holati, antropogen landshafti va ekologik holatlarini Amudaryo va Zarafshon daryolarining ming-minglab yillar mobaynida suv tarkibidagi

mineral moddalarga ega bo'lgan loyqalarining yotqizilishi natijasida hosil bo'lgan tekislikda o'z aksini topgan. Mazkur maqolada Amudaryo va Zarafshon daryolari dinamikasi ta'sirida Janubiy Oqchadaryo havzasi va Quyi Zarafshon vodiysining paleogeografik holati ta'sirida paleoekologiya va o'zlashtirilish tarixini yoritish nazarga olingan bo'lib, bu jarayon mil.avv. VII ming yillikning oxiri – IV ming yillik ikkinchi yarmi – III ming yilliklar birinchi yarmidan iborat.

**MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI.** 1937-yil tashkil qilingan Xorazm ekspeditsiyasi ilk arxeologik izlanishlarni Amudaryo o'ng sohili hududi geografik holatini tasvir qilgan Yonboshqal'a balandligi atroflari arxeologik qidiruv ishlari natijasida ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan arxeologik yodgorliklarni ro'yxatga oldi, ularning ba'zilarida qazishma ishlarini olib borishi ilmiy tadqiqot rejasiga kiritildi. 1939-1940, 1945-yillarda Jonbosqal'a yodgorligidan 1,5 km janubi-g'arbda aholi qoldirgan madaniy izda qazishma ishlari natijasida yer sathiga, yog'och ustunli to'g'riburchak shaklda (26x7) manzilgoh o'rganildi, olingan ashyolar asosida Jonbos-4 etnotaponomika atamasida tarix sahifasidan o'rin olgan [2,3,4]. 1954-1957 va 1958-1961-yillarda Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi Oqchadaryo havzasida arxeologik qidiruv ishlari natijasida ro'yxatga olingan Jonbos 11, 12, 13, 14, Kuniyak, Djingeldi, Kamista, 42-tagan Baraktam-10 manzilgohlarida qazishma ishlarini olib borib, mil.avv. IV-III ming yilliklar birinchi yarmiga oid mehnat qurollari, kulolchilik ashyolari, kvarsit va ohaktoshdan yasalgan zeb-ziynat mahsulotlarini olishga muvassar bo'lingan[5.6.7.8]. Shu bilan birga, Janubiy Oqchadaryo geografik manzarasini tasvir qilgan Qizilqum yuzasida yuz bergan gidrologik xususiyat Zarafshon daryosi suv oqimi ko'tarilishi munosabati bilan qumtepaliklar oralig'ida botiqlar suv havzalariga aylangan. Mazkur bir-biriga ulanib ketgan suv havzalari sohili etaklari odamzot tomonidan o'zlashtirilgan. Misol tariqasida, 1940-1950-yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti Ya.G'.G'ulomov rahbarligida arxeologiya guruhi Zarafshon daryosi qadimiy o'zanlari Maxondaryo va Gudjayli irmoqlari atroflarida arxeologik qidiruv ishlarini olib borib, aholi manzilgohlarini ro'yxatga olgan.

1950-yil o'rtalaridan boshlab, Maxondaryo arxeologiya guruhi Maxondaryo va Gudjayli irmoqlari suv toshqini natijasida vujudga kelgan suv havzasi sohili etagida tepalikka yog'och ustunli, hajmi 81 m<sup>2</sup> to'g'riburchak shaklda manzilgoh o'rganilib, u Darbozaqir-L atamasi bilan ma'lum. Arxeologik qazishma natijasida manzilgohda 3 ta madaniy qatlam o'rganilgan. Madaniy qatlamdan kulolchilik ashyolari, baliq suyaklari, toshbaqa, qushlar tuxumi po'choqlari olingan. Xuddi shunday moddiy ashyolar Darbozaqir-2 manzilgohidan olingan. Qazishma ishlari olib borilgan maydon 206 kv/m 584 tosh qurollar va 335 ta sopol buyumlari olingan. Manzilgoh ovchilar va termachilar manfaatlariga xizmat qilgan [9].

1968-yildan boshlab, Quyi Zarafshon vodiysida Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi A.V.Vinogradov rahbarligida guruh hamda Samarqand davlat universiteti arxeologiya kafedrasida M.Juraqulov rahbarligida guruh hamkorligida Quyi Zarafshon vodiysida Neolit davri yodgorliklarida qazishma ishlarini davom ettirdilar.

A.V.Vinogradov monografiyasida Janubiy Oqchadaryo havzasida Jonbos-4, Qavat-5, Kuniyak-1, Qavat-7, janbas-32, Tadjikazgan 6 a, 2,3,6,10 Tuyamuyin hududida 1973-1974-yillarda Qushbuloq-1, Sultan Sanjar 1.2, Qarriqizil 1.4, Quyi Zarafshonda Uchashi-131, Ayakatima 10, 11, 47, 90, 12a, 177, 178, 201, 230, Darbozaqir1.2, Zarafshon daryosi Echkiliksoy irmog'i atrofida Xujagumbaz - 5, hamda Quyi Sirdaryo havzasida Saksaul, Shulkum, Yesen-Tyube, Jalpak, Kosmola 1-6, Talas-1, Aymora-1 manzilgohlari to'g'risida ma'lumotni qayd qilgan[10]. Tadqiqotchi N.Xolmatov monografiyasida Quyi Zarafshon vodiysi geografik holati, ekologiyasi va gidrologik xususiyatlari Zarafshon daryosini Daryosoy, Echkiliksoy, Oyoqagitma, Maxondaryo, Xo'jayli irmoqlari faoliyatlari bilan bog'lab, ular suv toshqini natijasida hosil bo'lgan kichik va katta tuzkon atroflarida darbozaqir 1,2 manzilgohlari ovchilari Oqchadaryo havzasi avjlari bilan bir qatorda kundalik faoliyatlarini olib borganligi to'g'risida xulosani qayd qilgan [11].

#### **TADDIQOT METODOLOGIYASI.**

- Obyektivlik, tarixiy-xronologik tahlil, munozara, ilmiy asoslash, umumlashtirish, mantiqiy xulosa, arxeologiya, geografiya, geologiya, etnologiya fanlari yutuqlaridan foydalanildi.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Amudaryo suv toshqini natijasida sohil adog‘i ko‘tarmasidan shiddat bilan oqib tushgan suv oqimi Qizilqum barxanlari oralg‘ida botiqlar hamda Sho‘roxon qishlog‘i yaqinidan ajralib chiqqan Oqchadaryo irmog‘i Qizilqum tomon 25 km uzunlikda botiqlar suv havzalariga aylanganligi bois, Shuraxon va Sulton Uvays oralg‘i hududining gidrologik tuzilishini namoyon qilgan. Suv havzalari sohil etaklari o‘ziga xos geografik holati, antropogen landshafti ta‘sirida ekologiyasi shakllangan edi. Amudaryo faoliyati natijasida Quyi Amudaryo havzasi o‘ng va so‘l sohil hududlariga bo‘linib, ularning geografik holati, antropogen landshafti, gidrologiyasi va ekologiyasi jihatidan Janubiy va Shimoliy Oqchadaryolarga bo‘lingan.

Janubiy Oqchadaryo ilk shakllanganligi bois qadimgi davr, shimoliy Oqchadaryo yosh hisoblangan [2]. Janubiy Oqchadaryo hududiga geografik manzara jihatidan ulanib ketgan G‘arbiy Zarafshon hududi yuzasi rang-barangligi Zarafshon daryosining suv sathi ko‘tarilishi natijasida undan ikki yon tomonga ajralib chiqqan Daryosoy, Maxondaryo, Go‘jayli, Echkiliksoy, Oyoqagitma irmoqlari tasvir qilgan [3].

Janubiy Oqchadaryo va Quyi Zarafshon vodiysi landshafti-iqlim sharoiti, ekologiyasi sharoitida odamzotning joylashishi, turmush tarzi, xo‘jalik sohalari mavjud bo‘lgan adabiyotlarda ma‘lumotlarni nazariy-qiyosiy tahlil qilinadi.

Ya.G‘.G‘ulomov rahbarligida Maxondaryo arxeologik guruhi Quyi Zarafshon vodiysida olib borgan dala amaliyoti davrida Janubiy o‘zan atroflarida 60, shimolida 700, Echkiliksoyda – 30, Sharqiy Ayakagitma havzasida 269, G‘arbiy Ayakagitmada esa 127. Daryosoy irmog‘i bo‘ylab 200 ta Neolit davriga mansub yodgorliklar ro‘yxatga olingan [4].

Xorazm ekspeditsiyasi xodimi A.V.Vinogradovning Janubiy Oqchadaryoda Neolit davri Jonbos-4,5, Qavat-5, Kunyak-1, Qavat-7, Jonbos 32, 14, 33, Tadjikazg‘an 6, 6 a, 2, 3, 6, 10 manzilgohlarida, Quyi Zarafshon hududida Darbozaqir 1,2, Uchashi - 131, Chorbakti-13, 14, 15a, 15 b manzilgohlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari qayd qilinadi.

**XULOSA VA TAKLIFLAR.** Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining Oqchadaryo havzasida, Ya.G‘.G‘ulomov rahbarligida Maxondaryo arxeologik guruhi,

Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi hamda Samarqand davlat universiteti arxeologiya kafedrasini hamkorligi arxeologiya tarixining Quyi Zarafshon hududida neolit davri manzilgohlarini arxeologik jihatidan o‘rganilishi natijasida paleogeografik holati, ekologiya ta‘sirida aholining joylashishi masalasida quyidagi yakuniy xulosaga kelish mumkin:

- Geologik jarayonlar taraqqiyoti natijasida Janubiy Oqchadaryo havzasi va Quyi Zarafshon vodiysi tekislik bo‘lgan.

- Yer geologiyasining Neogen davridan faoliyat boshlagan Amudaryo va Zarafshon daryolari, bundan 8-7 ming yilliklardan osmono‘par tog‘lardan oqib tushgan jilg‘alar suvini qamrab olib, suv tarkibidagi mineral moddalarga boy bo‘lgan loyqa qatlamlarini yotqizishi natijasida sernam va serunum tekislik odamzotning joylashib, kundalik faoliyatlarini belgilab olishi imkoniyatiga tayyor turgan.

- Mil.avv.VII ming yillik oxiri – IV ming yillik ikkinchi yarmi – III ming yilliklar birinchi yarmi Oqchadaryo havzasi va Quyi Zarafshon vodiysi aholi tomonidan o‘zlashtirilib, tabiiy resurslardan foydalanib, ilk kasb-korlarini belgilab olganlar, bu kasblar hozirgi zamonda davom etmoqda.

**Maqola natijalar asosida quyidagi takliflar tavsiya qilinadi:**

- Amudaryo o‘ng sohili hududi Oqchadaryo havzasi hamda G‘arbiy Zarafshon vodiysining geologik asosi yaxlit, geografik manzarasi Qizilqum sahro sharoiti hosil qilgan geografik kenglikda istiqomat qilgan aholining tarixiy ildizi bir-biri bilan chambarchas bog‘langan. Shu jihatidan olganda Quyi Zarafshon hududida neolit davri yodgorliklari Xorazmda “Kaltaminor madaniyati” nomida qayd qilingan.

- Janubiy Oqchadaryo va Quyi Zarafshon vodiysi hududlarida joylashgan aholining moddiy va ma‘naviy madaniyati yaxlit asosda o‘rganishi hozirgi zamon talablaridan biri.

- Urganch davlat universiteti hamda Buxoro davlat universitetlari hamkorligida arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etilib, ajdodlarimiz o‘tmish tarixini o‘rganish hozirgi kun ruhiga mos keladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Баратов П, Маматкулов М, Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси -Тошкент: Ўқитувчи, 2002-Б. 283.
2. Толстов С.П. Хорезмская археологическая экспедиция 1940 г. -М.:Наука, 1946. Вып XII-С. 90-91.
3. Толстов С.П. Новые материалы по истории культуры древнего Хорезма (Предварительные работы Хорезмской археологической экспедиции Института истории материальной культуры АН СССР 1940 г. //ВДИ-М.:Наука 1946. Вып-1-С. 61-65.
4. Толстов С.П. Древний Хорезм-М.:МГУ, 1948-С. 65-59.
5. Толстов С.П. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1954 г //СВ-М.:Наука, 1955. Вып 6-С. 95-103.
6. Толстов С.П. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция 1955-1956 гг //СА-М, Наука, 1958. Вып-1-С. 106-111.
7. Виноградов А.В. Новые неолитические находки Хорезмской экспедиции АН СССР в 1957 г //МХЭ,-М.: Наука, 1960. Вып.4-С. 63-81.
8. Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма-М.:Наука, 1968. Вып 8-170 с.
9. Гулямов Я.Г, Исламов У.И. Аскарлов А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в Низовьях Зарафшана - Ташкент: Фан, 1966- С. 21-216.
10. Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья-М, Наука, 1981. Вып. XIII.
11. Холматов Н. Ўзбекистон неолит даври жамоаларининг моддий маданияти-Тошкент: Фан, 2007. Б. 27-31.

